

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING
SANITAR-GIGIYENIK AHVOLI (1946 – 1991 yillar)

Xolmirzayeva Odinaxon Akmaljon qizi
FDU tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrlarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarini ko'payib borishi, ulardagi mavjud shart-sharoit, tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi hamda sanitar-gigiyena holati ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar, shuningdek, hayotiy xotiralar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar bog'chalari, tibbiyot, sil, gipotrofiya, venerik kasalliklar, qizamiq, ko'k yo'tal, gigiyena.

Ikkinch jahon urushidan keyingi yillarda ko'pgina sohalar qatori maktabgacha ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ushbu sohani rivojlantirish nafaqat ijtimoiy jihatdan balki siyosiy-iqtisodiy jihatdan ham juda muhim edi. Shu boisdan hali urush yakunlanmay turiboq sohani rivojlantirish bo'yicha bir nechta qarorlar qabul qilinadi. Xususan, 1944-yil 9-yanvarda "Bolalar bog'chalari tarmoqlarini kengaytirish va ularning ishini yaxshilash tadbirlari to'g'risida", shu yilning 10-noyabrida "Bolalar muassasalari tarmoqlarini kengaytirish hamda xotinlar va bolalarga meditsina va maishiy jihatdan xizmat ko'rsatishni yaxshilash tadbirlari to'g'risida" gi qarorlar shular jumlasidandir. Ushbu qarorlarga ko'ra bolalar bog'chalari soni va qamrovi oshirilishi belgilangan. Shuningdek, yolg'iz onalarning farzandlarini sutkalik tartibda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalash joriy etildi.¹

Yuqoridagi vazifalarni hal qilish uchun bolalar bog'chasida muvofiq gigiyenik sharoit yaratish va bolalarni parvarish qilishni yaxshi yo'lga qo'yish, kundalik tartibni to'g'ri tashkil etish, bolalarni to'yimli ovqat bilan boqish, bolalarning ochiq havoda yetarli suratda bo'lishlarini ta'min etish, bolalar organizmini chiniqtiradigan tadbirlar o'tkazish zarur. Bolalarda gigiyena malakalarini tarbiyalashga ham katta e'tibor berishni talab etadi. Lekin masalani ayni shu tomonlari ochiq qoldi. To'laqonli tayyor bo'lmay turib ochilgan ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalari gigiyenik talablarga, hattoki, xavfsizlik talablariga javob bermas edi. Tizimdagi ushbu kamchiliklar yillar o'tgani sayin bo'y ko'rsatib, o'z natijasini bera boshlagan. Urushdan keyingi dastlabki yillarda maktabgacha ta'lim qamrovini oshirishga qaratilgan keskin chora-tadbirlar natijasida ko'plab bog'chalar ochildi. Ammo, ushbu ochilgan muassasalarning, aksariyat, qismi moslashtirilgan binolarda tashkillanib,

¹ Maktabgacha tarbiya spravochnigi. – T., 1974. 13-14-бетлар

deyarli hech bir talabga javob bermagan. Kolxozlar qoshida tashkillangan maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ayni vaziyat oqibatida 1950-yillardan boshlab bolalar, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar o'limi keskin oshgan. Jumladan, 1950-yilda Quva tumaniga qarashli Oktabr savxozida mart-dekabr oylari oralig'idagi davr mobaynida ro'yxatga olingan o'lim qaydnomasining 50 foizini maktabgacha yoshdagi bolalar o'limi tashkil qilgan². Ro'yxatdagi ma'lumotlarga qaraganda maktab yoshidagi bolalar o'limi ham tez- tez kuzatilib turgan. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, har o'n boladan bittasi o'pkaning yengil shamollashi oqibatida vafot etgan.³ Bundan ko'rinadiki, bog'chalarda qish mavsumi uchun yetarlicha tayyorgarlik ko'rilmagan, qolaversa, muassasa tashkil qilingan joylar ko'pincha moslashtirilgan binolardan iborat bo'lib namlik darajasi hisobga olinmagan. Bolalarda ovqatlanish tarkibi sifatsiz bo'lgani bois (chaqaloqlar ko'krak suti bilan yetarlicha boqilmasligi sabab) immuniteti tushib ketgan, oqibatda turli kasalliklarga tez chalingan. Shuningdek, ushbu davrda gipotrofiya (noto'g'ri ovqatlanish), venerik kasalliklar (so'zak va zahm), qizamiq, ko'k yo'tal, sil kasalligining har xil turlari kabi yuqumli kasalliklar ham maktabgacha yoshdagi bolalar orasida keng tarqalgan⁴. Jumladan, 1960-yilda Quva tumani bo'yicha ro'yxatga olingan jami 3572 nafar boladan 1268 nafari 1 yoshgacha bo'lgan bolalar, bog'cha yoshdagi bolalar 2686 nafarni tashkil etgan. Shundan ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning 1305 nafari, bir yoshgacha bo'lgan bolalarning 413 nafari turli yuqumli kasalliklar bilan kasallangani qayd etilgan⁵. Ushbu davrda yuqumli kasalliklardan ayniqsa qizmaq va sil yetakchi o'rinlarda turgan⁶.

Ayrim shaharlar va chekka hududlardagi tumanlar tasarrufidagi doimiy maktabgacha ta'lim muassasalarida XX asrning 80 – 90 yillarda ham, aksariyat, hollarda hojatxonalar yetishmagan. Masalan, Toshkent ilmiy tadqiqot institutining Qo'qon tayanch punkti qoshida (Bog'dod tumanida) ochilgan 37-sonli "Nihol" bolalar bog'chasida atiga ikkitagina bir xonali hojatxona, Lelingrad tumanida joylashgan "Hamza" savxoziga qarashli maktabgacha tarbiya muassasida bittagina bir xonali hojatxona mavjud bo'lib, hojatxonaga borish yo'lagi ushbu vazifani o'tagan⁷. Natijada, bog'cha hovlisida issiq kunlarda noxush hid, turli hasharotlardan va ular sabab tarqaladigan turli yuqumli kasalliklardan muassasa xodimlari ham bolalar ham aziyat chekkan. Buni natijasida ushbu davrda gepatit kasalligi savxoz aholisi orasida keng tarqalgan.⁸

Maktabgacha tarbiya muassasalari sanitar jihatdan qurilish meyorlari to'g'risidagi hujjatning yangi tahriri SSSR Davlat bosh sanitariya inspektorining o'rinbosari

² ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 192-варақ

³ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 152-варақ

⁴ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 159-варақ

⁵ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 5-варақ

⁶ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 11-варақ

⁷ Botirova Sho'iraxon opa Abduqodirovna – Bog'dod XTB ga qarashli bog'cha tarbiyachisi, Uchko'prik tumani, Istiqlol ko'chasi 68-uyda istiqomat qiladi (53 yosh). 2022-yil 25-dekabrda suhbatlashilgan.

⁸ ФВДА, 3263-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 12-варақ

tomonidan 1962-yil 12-iyunda tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra birlashgan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari havoni ifloslantiruvchi gavjum transport magistrallari va sanoat korxonalaridan olisda, mustaqil yer maydonida joylashishi lozim bo‘lgan⁹. Biroq, ushbu hujjatda keltirilgan gavjum transport magistrallaridan birmuncha olisda tashkil etilishi to‘g‘risidagi bandigagina barcha maktabgacha ta‘lim muassasalari joylashishida e‘tibor qaratilib, qolgan talablar nazardan chetda qoldirilgan. Hujjatning qolgan bandlariga markaziy hududlarda amal qilinib, qishloq joylarda amal qilinmagan. Ko‘pgina kolxozlar tasarrufida tashkil etilgan bog‘chalar dala maydoni o‘rtasida paxta punkitlari binolarida joylashib, xonalarda kuz va qish oylarida namlik ortib ketgan. Namlik ortishi esa bolalar orasida turli o‘pka kasalliklarini keltirib chiqargan¹⁰. Xususan, Farg‘ona viloyatining Quvasoy, Toshloq, Quva tumanlari bog‘chalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi past darajada bo‘lib, kolxoz raislari va partiya tashkiloti birinchi kotiblari bu masalalarga jiddiy e‘tibor qaratmaganlar. Natijada, ushbu davrda bolalar orasida o‘pka shamollashi, sil, zahm va bezgakka chalinish hollari ko‘p uchragan. Bir yillik o‘lim qaydnomalarining 50 foizini maktabgacha yoshdagi bolalar tashkil etgan¹¹. Shuningdek, maktab yoshidagi bolalar o‘limi ham ro‘yxatning 20 foizini tashkil qilgan¹². 1960-yili Quva tumani miqyosida 150 nafar bola vafot etib, shundan, 69 nafari 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 31 nafari 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 23 nafari 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 18 nafari 3yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 9 nafari 7-14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil qilgan¹³. Vafot etgan bolalardan atiga 40 nafari shifoxonada davolash choralari ko‘rilayotgan paytda vafot etib, 110 nafari uyda hech qanday tibbiy choralar ko‘rilmay vafot etgan¹⁴.

XX asrning 70 – 80 yillarda ham viloyatning chekka tumanlaridagi tibbiy yordam darajasi hamda sanitariya- gigiyena ahvoli talab darajasidan anchayin past bo‘lgan. 1977-yilgi arxiv ma‘lumotlaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak ushbu davrda ham o‘lim qaydnomasi hamda kasallik varaqalarining asosiy qismini turli yuqumli kasalliklardan hamda shamollashning xilma-xil ko‘rinishlaridan kasallangan bemorlar, tashkil etgan¹⁵. Ular orasida maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Kolxozlar tasarrufidagi ko‘pgina muassasalarda toza ichimlik suvi ham bo‘lmasdan usti ochiq holdagi yasama hovuzlarda to‘plangan suvdan foydalanilgan. Ushbu hovuzlar ko‘p hollarda muassasa hovlisida joylashib undan chiqadigan oqava suv yo‘lidan bolalar yuz-qo‘lini yuvishda, yoz kunlarida esa hovuzdan kattaroq yoshdagi bolalar cho‘milish maqsadida foydalanilgan. Bu holatlar ko‘plab kasalliklarni tez

⁹ Мактабгача тарбия справочниги. – Т., 1974. Б-372.

¹⁰ ФВДА, 2887-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 1-9-варақлар.

¹¹ ФВДА, 2887-фонд, 1-рўйхат, 39-иш, 3-9-варақлар

¹² ФВДА, 2887-фонд, 1-рўйхат, 43-иш, 13-19-варақлар

¹³ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 2-3-варақлар

¹⁴ ФВДА, 2269-фонд, 1-рўйхат, 15-иш, 9-варақ.

¹⁵ ФВДА, 923-фонд, 3-рўйхат, 90-иш, 3-60-варақлар.

fursatda keng tarqalishiga zamin yaratgan. Qolaversa, hovuz bilan bog‘liq ko‘plab baxtsiz hodisalar ham tez-tez uchrab turgan. Masalan, Lelingrad tumaniga qarashli Hamza savxozi tasarrufidagi 37-sonli “Yulduzcha” kolxoz doimiy maktabgacha ta’lim muassasasida 1975-yilda 3 yoshli tarbiyalanuvchi Boqiyeva Tamanno Yakubovna muassasa hovlisidagi hovuzga yiqilib tushishi natijasida bosh miyya qismi qattiq shikastlangan. Oqibatda, bolada ruhiy nosog‘lomlik aqliy jihatdan ortda qolish holati kuzatilgan. Shunga qaramasdan ushbu hovuzdan to bog‘cha 1991 yilda yopilgunigacha bo‘lgan vaqtda ham foydalanish davom etib, hech qanday ehtiyot choralari ko‘rilmagan¹⁶.

Yoz va kuz oylarida tashkil qilingan mavsumiy maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar deyarli kolxoz qozonidan ovqatlanishgan, qolaversa, 2-3 yosh va undan yuqori bolalar dalada kolxozchi ayollar yonida yurgan. Chaqaloqlarga esa dalada belanchaklar osilib ayollar navbat bilan(aksariyat, kasal ayollar) qaragan. Ekin maydonlariga turli xil kimyoviy moddalar maxsus samalyotlarda yuqoridan odamlar ustidan sepib ketilgan. Oqibatda, aholi orasida kimyoviy zaharlanish hollari tez-tez uchrab turgan. Emizikli bolalar esa ko‘p hollarda bir ona tomonidan oziqlantirilgan¹⁷. Ushbu holat keyinchalik turli irsiy kasalliklarni yuzaga keltirishi mumkinligi hech kimni qiziqtirmagan.

XX asrning 40-yillari oxiri¹⁸ –50 yillari boshlaridan boshlab, xususan, Farg‘ona viloyati aholisi orasida, ayniqsa, bolalarda sil, zahm, diareya, bezgag singari yuqimli kasalliklar avj olgan.¹⁹ Avvalo, yetarlicha issiqlik yoqilg‘isi mavjud emasligi, qolaversa, muassasalar isitish tizimi bilan jihozlanmaganligi, har bir xonaning alohida isitilishi kerakligi, ushbu ishga alohida shtat ajratilmasligi, haq to‘lanmasligi oqibatida ko‘p xollarda bog‘cha xonalari sovuq bo‘lgan. Natijada, kuz-qish oylarida bolalar orasida ham xodimlar ichida ham shammollashning turli ko‘rinishlari keng tarqalgan. Ayniqsa, yengil o‘pka shamollashi bolalar o‘rtasida tez-tez uchrab turgan. 0-3 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida ayni kasallikdan o‘lim ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan. Xususan, Farg‘ona viloyati Quva tumanida 1952-1960 yillarda ushbu kasallikdan vafot etgan bolalar soni o‘lim qaydnomalarining qariyb 30 foizini tashkil etgan (o‘smirlarni ham qo‘shib hisoblaganda). Tuman miqyosida eng ko‘p bolalar o‘limi “Namuna” kolxozida qayd etilgan²⁰.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, qishloqdagi aholi sog‘lig‘i, xavfsizligi masalasi mas‘ul shaxslarni qiziqtirmagan. Yillik hisobotlar, o‘tkazilgan tekshiruvlar qanchalik ayanchli bo‘lmasin, muammoni hal etish bo‘yicha jiddiy ish qilinmagan.

¹⁶ Botirova Shoiraxon opa Abduqodirovna – Bog‘dod XTB ga qarashli bog‘cha tarbiyachisi, Uchko‘prik tumani, Istiqlol ko‘chasi 68-uyda istiqomat qiladi (53 yosh). 2022-yil 25-dekabrda suhbatlashilgan.

¹⁷ Botirova Shoiraxon opa Abduqodirovna – Bog‘dod XTB ga qarashli bog‘cha tarbiyachisi, Uchko‘prik tumani, Istiqlol ko‘chasi 68-uyda istiqomat qiladi (53 yosh). 2022-yil 25-dekabrda intervyu olingan.

¹⁸ ФВДА, 464-фонд, 4-рўйхат, 2-иш, 5-варақ

¹⁹ ФВДА, 2501-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 13-варақ

²⁰ ФВДА. 2269-фонд 1-рўйхат, 15-иш, 8-9-варақ. Годовой статистический отчёт о составе мед. Учреждений здравоохранения, о медицинских кадрах, о количестве койко-дней в больницах. И другие отчёты.

Aholi orasida yuqumli kasalliklar haqida to'g'ri targ'ibot ishlari olib borilmagan. Natijda ko'pgina bemorlar kerakli muolajani olmay uylarida xavf darajasi yuqori bo'lmagan yengil kasalliklardan ham vafot etishgan. Ayniqsa aholi orasida ayollar va bolalar o'limi yuqori ko'rsatkichlarda turgan. Farg'ona viloyatiga oid arxiv hujjatlarini o'rganish mobaynida shuni guvohi bo'ldikki, nafaqat qishloq joylarda hatto shaharlardagi fabrika va zavodlarda ishlovchi ayol-qizlarning, umuman, ishchilarning ham oziq-ovqat masalasida bir qancha muammoli jihatlari mavjud bo'lgan. Farg'ona viloyat tibbiyot birlashmasining 1973-yilgi jarrohlik qaydnomalarining 90 foizini o'tkir apenditsit(ko'richak) bilan og'rikan bemorlar, undan 70 foizini ayol-qizlar tashkil qilgan²¹. Achinarli tomoni voyaga yetmagan bolalar orasida hattoki maktabgacha yoshdagi bolalar orasida ham bu kasallik bilan og'rikan bemorlar uchrab turgan.

Shuningdek, ushbu davrda maktabgacha yoshdagi bollar orasida gipertrofiyaga²² chalinish hollari tez-tez uchragan. Zo'r berib ishlash oqibatida kolxoz xodimlari orasida ham bu kasallik bilan og'rikan bemorlar soni yildan yilga ortib borgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning loqtatsiya davridan boshlab qabul qilinishi zavod-fabrikalarda ishlovchi ayollar orasida ko'krak saratoniga chalinish ehtimolini oshirgan. Ayni damda tug'ruqdan so'ng erta muddatlarda ekin dalalariga qaytish oqibatida qishloq ayollari ichida venerik kasalliklariga chalinish hollari ko'paygan²³.

1985-1990 yillarda ham kolxozlar tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tibbiy xizmat ko'rsatish past darajada bo'lib, alohida tibbiyot-xodimi ajratilmagan. Bolalar umumiy tarzda qishloq vrachlik punkitlarida tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan. Ayni paytda Markaziy hududlardagi yoki davlat tasarrufidagi bog'chalarda bolalarni erta tongdan qabul qilish jarayonida tana haroratlarini o'lchab so'ngra qabul qilingan. Agarda biror- bir bolaning tana harorati yuqori bo'lsa darhol muassasa shifokori qabuliga olib borilgan²⁴.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim muassasalarining yuqorida keltirilgan so'ngi turlari: kolxozlarning doimiy maktabgacha ta'lim muassasalari, mavsumiy maktabgacha ta'lim muassasalari, davlat byudjet tashkilotlari hamda turli vazirliklarga qarashli doimiy maktabgacha ta'lim muassasalarining ish tartibi, ish vaqti (mavsumiy bog'chalarda mavsumga ko'ra), belgilangan me'yorlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ovqatlanish menyusi uchun belgilangan talablar bir xil bo'lgan. Faqatgina farqli jihati kolxoz doimiy maktabgacha ta'lim muassasalari va mavsumiy muassasalar kolxoz byudjeti hisobidan ta'minlangan, qolgan ta'lim muassasalari davlat byudjeti hisobidan faoliyat yuritgan. Masalaning ayni jihati ushbu bog'chalar faoliyatidagi

²¹ ФВДА, 923-фонд, 4-рўйхат, 174-иш, 3-100 varaqlar

²² ФВДА, 923-фонд, 4-рўйхат, 175-иш, 55-56 varaqlar

²³ ФВДА, 923-фонд, 5-рўйхат, 18-иш, 60-68 varaqlar

²⁴ ФВДА, 833-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 5-варақ.

ta'lim- tarbiya, sanitariya-gigiyena, xavfsizlik, oziq-ovqat, yaratilgan shart-sharoit jihatidan keskin farqlarni yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'xati:

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabr "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5198-son farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqidan.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. 94-фонд. Годовые отчёты о работе управления и селов Министерства Просвещения УзССР. (1945-1980 гг.)
6. 1125-фонд. Отдел народного образования Ферганского областного исполкома и Наркомата просвещения, с 1946 г. Министерства просвещения УзССР г. Фергана. (1938-1982 гг.)
7. 2-фонд. Ферганский областной отдел здравоохранения.
8. 321-фонд. Ферганское областное управление статистики.
9. 154-фонд. Ферганская уездная комиссия по улучшению быта детей, отдела народного образования Ферганского уезда г. Ферганы. (1924-1927 гг.).
10. 587-фонд. Ферганский детский сад № 2. (1946-1949 гг.).
11. 833-фонд. Ферганский железнодорожный детский сад №5. Министерства путей сообщения УзССР. (1938-1948 гг.)
12. 2877-фонд. Детский сад Ленинградского района с. Учкуприк. (1942-1954 гг.)
13. 2887-фонд, Отдел здравоохранения Фрунзиского района Ферганской област.
14. 403-фонд. Ферганский городской отдел здравоохранения Ферганского горисполкома г. Фергана. (1920-1966 гг.)
15. 464-фонд. Ферганская областная противомалырийная станция. Ферганской областной санитарно-эпидемиологической станции г. Фергана. (1937-1941 гг.)
16. 570-фонд. Отдел здравоохранения Ферганского облисполкома и Наркомата, с 1946 г. – Минстерства здравоохранения УзССР г. Фергана. (1939-1964 гг.)
17. 2429-Фонд. Отдел здравоохранения исполнительного комитета Ферганского района (1946-1954 гг.).
18. 2269-фонд. Кувинский райздравотдел.(1941-1975 гг.)
19. 1104-фонд. Ферганская областная санитарно-эпидемиологическая станция отдела здравоохранения Ферганского облисполкома г. Фергана. (1936-1982гг.), (1960-1987 гг.)
20. 923-фонд. Ферганская областная больница Ферганского областного

отдела здравоохранения, с 1952 г – Ферганского облздравотдела г. Фергана.(1945-1990 гг.)

21. 3263-фонд. Боғдод тумани дезинфекция станцияси. (1985-1991 гг.)

22. 1-фонд. Докладные записки. обкома партии о ходе выполнения постановления СКК и ЦККП (б) в “ПО расширению сети детских учреждений и улучшению медицинского бытового обслуживания детей Н.К. Просвещения УзССР”

23. 2501-фонд. Феоганская противомаларная станция с. Ауваль.(1950-1954 гг.)

24. Тишабоева И. Ўзбекистонда мавсумий болалар боғчалари ва уларнинг фаолияти (1945-1970 йиллар). // Ўзбекистон миллий университети хабарлари. – 2021, № 1.3.1, Б-22-24.

25. Abdullayeva Odinoxon – Buvayda tumani sobiq kolxozchisi, Buvayda tumani, Ing‘irchoq MFY, 57-uyda istiqomat qiladi (80 yosh). 2023-yil 25-aprelda suhbatlashilgan.

26. .Botirova Shoiraxon opa Abduqodirovna – Bog‘dod XTB ga qarashli bog‘cha tarbiyachisi, Uchko‘prik tumani, Istiqlol ko‘chasi 68-uyda istiqomat qiladi (53 yosh). 2022-yil 25-dekabrda suhbatlashilgan.

27 Isakova Danoxon aya Ablakulovna – 1980-1994 yillarda Bog‘dod XTB ga qarashli bog‘cha mudirasi, Uchko‘prik tumani, Do‘stlik ko‘chasi 32-uyda istiqomat qiladi (78 yosh). 2023-yil 23-martda suhbatlashilgan.